

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тилипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Сардорбек Усмонхужаевич
доктор философии по социологическим наукам, доцент
(Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Alikariyev Nuriddin OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI MEHNAT SAMARADORLIGINING TAHLILI.....	4
2. Parmanov Farxod, Xudayarov Ixomjon SOTSIAL MOBILLIK PARADIGMASINING ETNOMADANIY INTEGRATSIYALASHUV TENDENSIYALARI.....	12
3. Турсунов Диёр, Сеитов Азамат ВЛИЯНИЕ ИНТЕРНЕТ-СМИ НА ПОЛИТИЧЕСКУЮ СОЦИАЛИЗАЦИЮ (НА ПРИМЕРЕ ПРОТЕСТОВ В РОССИИ 2017-2018 ГОДА).....	19
4. Sog'inov Nurmat AMALIYOTCHI PSIXOLOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI.....	29
5. Zaitov Elyor MAHALLANING O'RGANILISHIDA TARIXIY YONDASHUV.....	38
6. Алексеева Виктория СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ ЖЕНЩИН В УСЛОВИЯХ ФОРМИРУЮЩЕГОСЯ ГЕНДЕРНОГО ПОРЯДКА ДОСТИЖЕНИЯ РАВЕНСТВА.....	49
7. Kayumov Kaxramon DEVIANT HULQ-ATVOR PROFILAKTIKASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	57
8. Abdullaev Akmal Gadaymurodovich SIVILIZATSION YONDASHUV SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING METODOLOGIK BAZASI SIFATIDA.....	63
9. Mahammadjanov G'olibjon GLOBALLASHUV DAVRIDA JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI (Sinergetik yondashuv).....	71
10. Qozoqov Sobirjon O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIIY OMILLARI.....	76
11. Нуруллаева Джамиля СПОРТ КАК СОЦИАЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ.....	83
12. Mahammadjanov G'olibjon JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR: SOTSIOLOGIK YONDASHUV VA TAHLIL.....	90


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Mahammadjanov G'olibjon,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ma'sul xodimi,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (Phd)
e-mail: galibmahamadzanov@gmail.com

JAMIYATDA IJTIMOYIY ONG TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR: SOTSIOLOGIK YONDASHUV VA TAHLIL

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.11052543>

ANNOTATSIYA

Maqolada jamiyatda ijtimoiy ongning turli shakllari, xususan, axloq, urf-odat, an'ana, qadriyatlar (ijtimoiy, diniy) kabi ko'rinishlari mavjud bo'lib, u o'zgaruvchanlikka moyilligi, buning bir qancha sabablarini keltirib o'tish mumkinligi, shuningdek, jamiyatda amalga oshirilgan islohotlar natijasida. Ikkinchidan davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasida amalga oshirilgan o'zgarishlar o'z navbatida ijtimoiy ongning takomilida alohida ahamiyat kasb etishi tadqiq etilgan. Shu bilan birga jamiyatdagi o'zgarishlar, avvalo modernizatsiya va transformatsiya jarayonlarida ijtimoiy tizim doirasidagi o'zgarishlarning ta'siri, ijtimoiy ong shakllaridagi o'zgarishlarga bog'liqligi va buning natijasida fuqarolarning ijtimoiy ongida (shakllarida ham) o'zgarishlarga xos yondashuvlar atroflicha tahlil etilgan. Buning asosiy sabablaridan biri sifatidagi jamiyatdagi ijtimoiy tizimlarning o'zgarishi avvalo, fuqarolarning qarashlarida, xususan, ijtimoiy ongidagi o'zgarishlar asosida kechishi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ong, tafakur, ijtimoiy ong shakllari, sotsiologik tahlil, ijtimoiy tizimlar, ijtimoiy institutlar, transformatsiya, davlat, jamiyat, fuqarolar, sinergetika, evolyutsiya.

Махаммаджанов Голибжон,

Руководитель отдела социально-правового медицентра
Олий Мажлис Республикаси Узбекистан,
Доктор философии по политологии (PhD)
e-mail: galibmahamadzanov@gmail.com

ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ОБЩЕСТВЕ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД И АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

Существуют различные формы общественного сознания, в частности такие, как мораль, обычаи, традиции, ценности (социальные, религиозные). Общественное сознание склонно к изменениям, вызванных различными причинами, в том числе, проводимыми реформами. Было исследовано, что изменения, происходящие в общественно-политической структуре государства имеют особое значение в совершенствовании общественного сознания. Подробно проанализированы подходы к изменению общественного сознания граждан. Одной из основных причин этого является изменение социальных систем в обществе, прежде всего, основанное на изменениях во взглядах граждан, в частности, в их общественном сознании.

Ключевые слова: общественное сознание, мышление, формы общественного сознания, социологический анализ, социальные системы, социальные институты, трансформация, государство, общество, граждане, синергетика, эволюция.

Mahammadzhanov Galibjon,

Head of Department of Social Legal Media Center of

Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan,

Doctor of Philosophy in Political Science (PhD)

e-mail: galibmahamadzanov@gmail.com

ANALYSIS OF SOCIAL STRUCTURE AND OBJECTIVE: SOCIOLOGICAL CONTEXT AND ANALYSIS

ABSTRACT

There are various forms of social consciousness, in particular such as morality, customs, traditions, values (social, religious). Public consciousness is prone to changes caused by various reasons, including ongoing reforms. It was studied that the changes occurring in the socio-political structure of the state are of particular importance in improving public consciousness. Approaches to changing the public consciousness of citizens are analyzed in detail. One of the main reasons for this is the change in social systems in society, primarily based on changes in the views of citizens, in particular, in their social consciousness.

Key concepts: social consciousness, thinking, forms of social consciousness, sociological analysis, social systems, social institutions, transformation, state, society, citizens, synergetics, evolution.

KIRISH

Ijtimoiy ong tushunchasi jamiyatda o'rnatilgan qonun-qoidalarning umumiy birligi sifatida barcha ijtimoiy fanlarning asosiy o'rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tadqiq etish inson, jamiyat va davlat munosabatlari mukammal darajaga erishmasdan avval tadqiqot obyekti sifatida alohida ahamiyatga ega. Sotsiologiya fanida ijtimoiy ong va uning o'zgarishlarini jamiyatda yangicha mezonlarni o'rnatish hamda uni rivojlantirish mexanizmi sifatida alohida o'rin egallaydi. Ijtimoiy ong ko'plab gumanitar fanlarning o'rganish obyektlaridan biri bo'lishiga qaramasdan, unga turlicha yondashuvlar mavjud. Bunda sotsiologik qarashlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda sodir bo'ladigan har bir o'zgarishning ijtimoiy tarkibiy qismlarini tahlil etish, uning ta'sir chegaralarni aniqlash hamda yechimlari bo'yicha aniq takliflarni ishlab chiqish asosida kechadi.

METODOLOGIYA

Jamiyatda ijtimoiy muammolarning avj olishi fonida ijtimoiy ong va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi tendensiyalarni tadqiq etish muammolari XX asrda alohida mavzu sifatida e'tirof etiladi. Jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi har qanday hatti-harakatlar, aslida ijtimoiylik statusiga da'vogarlik qilishi mumkin [1, – C.39-49]. Tadqiqotchilar Dj.Bernard va L.Tompsonlar esa aslida ijtimoiy institutlarning tarkibiy qismlarini qoidalar va axloq me'yorlari majmui sifatida e'tirof etishgan [2, –P.125]. Demak, ijtimoiy ong insonlar va jamiyatda mavjud bo'lgan turli tashkilotlarning umumiy hamkorligi natijasiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Ayni vaqtda ular dastlabki ijtimoiy institutlarning shakllanishiga katta ta'sir qilgan.

Jamiyatda ijtimoiy ongning turli shakllari, xususan, axloq, urf-odat, an'ana, qadriyatlar (ijtimoiy, diniy) kabi ko'rinishlari mavjud bo'lib, u o'zgaruvchanlikka moyildir. Buning bir qancha sabablarini keltirib o'tish mumkin. Birinchidan, jamiyatda amalga oshirilgan islohotlar natijasida. Ikkinchidan davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasida amalga oshirilgan o'zgarishlar o'z navbatida ijtimoiy ongning takomilida alohida ahamiyat kasb etadi. D.Potopeykaning fikriga ko'ra, "ijtimoiy ong aslida jamiyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy ongning yorqin ko'rinishidir yoki axloqiy muassasadir" [3, – C.12]. Ijtimoiy ong va uning shakllari kishilarning kundalik hayot tarziga ta'sir

etadi. Demak, jamiyatdagi ijtimoiy muhitning rivojlanish trayektoriyasini aniqlashda hamma fanlar qatori sotsiologiya fani amaliylik nuqtai nazaridan o'rganish obyektlaridan asosiysi hisoblanadi.

Sotsiologiya fanlarida ijtimoiy ong tushunchasining amaliy ahamiyati M.Veberning qarashlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning asosiy qarashlarida jamiyat ta'sir kuchi birmuncha yuqori bo'lgan ijtimoiy ong shakli, madaniyatning ahamiyati, uning rivojlanishi masalasi turgan [4, – C.808].

ASOSIY QISM

Ijtimoiy ong va uning shakllari har bir davlat hamda xalqlarning yashash tarziga alohida ta'sirga ega bo'lgan fenomen hisoblanadi. Fikrimizcha, biron bir jamiyatning rivojlanish tendensiyasining aniqlash, uni o'zgartirish bilan bog'liq amaliy ishlar avvalo, undagi ijtimoiy ong, uning yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, jamiyatda ijtimoiy ong tushunchasining mavjudligining asosi avvalo, uning tarkibiy qismida quyidagilarni ifoda etish orqali ko'zga tashlanadi:

1) jamiyat o'rnatilgan qonun-qoida va ijtimoiy statuslarni o'z ichiga olgan, ma'lum vazifalarni bajarishga mo'ljallangan rollar tizimi;

2) halqlar, millat hamda elatlarning qadriyatlari, an'analari, xulq-atvor me'yorlari uyg'unligi;

3) rasmiy va norasmiy tuzilmalar (ijtimoiy institutlar);

4) jamiyatning ma'lum (ijtimoiy ong shakllari obyektlaridan kelib chiqqan holda) sohasini tartibga soluvchi va boshqaruvchi qoida, tartibotlar majmui;

5) jamiyatda alohida o'rin tutuvchi ijtimoiy harakatlar majmui.

Yana bir ta'rifga ko'ra, «ijtimoiy ong jamiyatda fuqarolarning doimiy hamda hayotiy faoliyatlarini tartibga soluvchi hamda uning jamoaviy ko'rinishiga aylangan (davlat boshqaruvi misolida) umumiy, tartibli qoidalar, qonunchilik ko'rinishidagi tizimlarning o'ziga xos mexanizmi hisoblanadi» [5, – C.227]. Ijtimoiy ong va uning shakllari har bir davlat hamda xalqlarning yashash tarziga alohida ta'sirga ega bo'lgan fenomen hisoblanadi. Fikrimizcha, biron bir jamiyatning rivojlanish tendensiyasining aniqlash, uni o'zgartirish bilan bog'liq amaliy ishlar avvalo, undagi ijtimoiy ong, uning yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Gumanitar fanlar doirasida ijtimoiy ong va uning rivojlanishi borasida quyidagicha yondashuvlar mavjud:

1. Normativ yondashuvga ko'ra, ijtimoiy ongning asosiy vazifalaridan biri – o'rnatilgan qoidalar shaklida jamiyatda insonlarning xatti-harakatlarini nazorat qiladi va tartibga solishda amaliy ahamiyat kasb etadi;

2. Etik (axloqiy) yondashuvga ko'ra, ijtimoiy ong va uning shakllari axloqiy qadriyat sifatida insonlarning jamiyatdagi tanloviga ta'sir qiladigan maqomi sifatida talqin etiladi. Mantiqiy nuqtai nazardan birinchi yondashuvga yaqin bo'lsa ham, ushbu yondashuv fuqarolarning ichki xususiyatlari bilan bog'liq.

3. Informatsion yondashuvga ko'ra, ijtimoiy ong jamiyatda turli jarayonlarga nisbatan axborotlar majmui sifatida jamiyatdagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatishi nazarda tutiladi.

4. Evolyutsion yondashuvga ko'ra, ijtimoiy va uning asosiy ko'rinishlari ma'lum bir muddat davomida rivojlanib, o'zini o'zi saqlab qolish imkoniyatlari asosida rivojlanadi, takomillashadi va tanazzulga uchraydi.

5. “O'yin” yondashuviga ko'ra, ijtimoiy ong aslida fuqarolarning jamiyatda bajaradigan rollari sifatida talqin etilib, har bir shaxsning xatti-harakatlarini maksimallashtirishga qaratilgan muayyan miqdoriy ko'rsatkich deb talqin etiladi [6, –C.6]. Ijtimoiy ong va uning shakllarining rivojlanishi an'anaviy va zamonaviy jamiyatlarga ham birdek xos jarayondir. An'anaviy jamiyatlarning transformatsiyalashuvi o'z navbatida ijtimoiy ong shakllaridagi tendensiyalaridagi faoliyat mezonlari o'zgarishi asosida kechadi. Ijtimoiy ong haqidagi dastlabki ilmiy paradigmalarning shakllanishi XVII asrda burjua jamiyati va unda yangi ijtimoiy munosabatlar paydo bo'lishi bilan bog'liq. Hatto, ijtimoiy ong ayrim an'anaviy jamiyatlarda mavjud barqaror ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni shakllantirish asosiy vositasi sifatida ham e'tirof etilgan.

Fikrimizcha, ijtimoiy ong jamiyat uchun birdek ta'sirga ega siyosiy tizim va unga xos bo'lgan ayrim boshqaruv elementlarini o'zida mujsammalshtirgan qarashlar birligidir. Uning jamiyatdagi maqomi, avvalo, aholining manfaatlarini, tarixiy rivojlanish imkoniyatlari (qadriyat, an'analari

ko‘rinishida)ni o‘zida mujassam etganligi va aholining katta qismiga ta‘sir ko‘rsatish darajasi bilan bog‘liqdir. Jamiyatda ijtimoiy ongning turli shakllari, xususan, axloq, urf-odat, an‘ana, qadriyatlar (ijtimoiy, diniy) kabi ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, u o‘zgaruvchanlikka moyildir. Buning bir qancha sabablarini keltirib o‘tish mumkin. Birinchidan, jamiyatda amalga oshirilgan islohotlar natijasida. Ikkinchidan davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasida amalga oshirilgan o‘zgarishlar o‘z navbatida ijtimoiy ongning takomilida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning jamiyatdagi boshqa jamoat birlashmalariga nisbatan asosiy farqi shunda namoyon bo‘ladiki (transformatsiyalashuv jarayonida) ular boshqaruvni shakllantirish uchun bevosita va bilvosita ta‘sirga ega. Ijtimoiy ong va uning shakllarining jamiyatda mavjudligi, rivoji esa aslida jamiyatdagi turli qarashlar, kayfiyat asosida (ayniqsa, bunday kuchlar o‘tish davri va zamonaviylashuv bosqichidagi davlatlarda yaqqol ko‘rinadi) aholi qatlamlarining boshqaruv doirasida birlashuviga olib kelishiga xizmat qiladi. Bu tom ma‘noda zamonaviylashuv jarayonida davlat boshqaruvi transformatsiyalashuvining hamda mustahkamlashning eng samarali siyosiy vositasidir.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tkanimizdek, ijtimoiy ong, uni rivojlantirish masalasi butun bir davlat va jamiyatning umumiy taraqqiyoti indekslaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy ong hamda uning transformatsiyalashuvining Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab qo‘yilgan «inson – jamiyat – davlat» ko‘rinishining g‘oyaviy-mafkuraviy targ‘ibot-chisi, shuningdek, davlat boshqaruvini doimiy isloh qilish, zamon talablariga moslashtirish, jamiyatda o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lgan yangi avlodni tayyorlashga «ijtimoiy faollik mexanizmlari yig‘indisidir» (muallif). Ijtimoiy ong ixtiyoriylik asosida, aholining ma‘lum qatlamlari manfaatlarini birlashtiruvchi va davlat va jamiyat doirasida uni ta‘minlashning amaliy ifodasi bo‘lgan o‘ziga xos fuqarolik jamiyati institutidir. Bunday munosabatlar shakllanmagan jamiyatlarda ishonch susayadi, institutlar faoliyatining natijaviyligi samarasiz hisoblanadi. «Shartnoma bu yerda faqatgina qog‘oz, konstitutsiya chang bosib yotgan jild, saylovlar – qamal, hayot esa qiynoq. Bundan qutulishning birdan bir yo‘li bor, bu ham bo‘lsa, Amerikadan chiqib ketish kerak» [7, – P.347].

Ijtimoiy ong rivojlanishiga oid yana bir sotsiologik qarashga ko‘ra, jamiyatdagi aholining turli qatlamlari orasida birdamlikni ta‘minlash ular o‘rtasidagi nizolarni tartibga solish bilan bog‘lanadi, aslida bunday nizolar bo‘lmagan taqdirda ularning jamiyatdagi o‘rni ham sezilmasligi alohida ta‘kidlanadi [8, – C.29].

E‘tiborli jihati shundaki, ijtimoiy ongning rivojlanishi, o‘zgarishi, unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni tadqiq etish faqatgina davlatning manfaatlari uchun emas, aholi qarashlarini hokimiyat va davlat miqyosida ifoda etishda, jamiyatda milliy birdamlikni ta‘minlashdagi ahamiyati bilan izohlanadi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar asosida davlat va jamiyat munosabatlarini yaqinlashtirish, himoya qilish tizimini mustahkamlashning asosiy omili – barqarorlikni saqlash bilan bog‘liq jarayonlarda aynan jamiyatda ijtimoiy ongning darajasi, o‘zgarishi, zamonaviy ahamiyatiga katta o‘rin berilgan [9, – C.149-179].

Ammo, sotsiologik adabiyotlarda ijtimoiy borasida so‘z yuritilganda ularning faqatgina ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni va roli masalasiga e‘tibor berish bilan cheklaniladi. B.Juvenel «jamiyatning ichida o‘zaro ishonch munosabatlarini shakllantirish, jamiyatning olg‘a intilishi uchun mezon, avvalo, ijtimoiy ong va uning institutlari tomonidan shakllantiriladi» [10, – P.123], degan edi. Ijtimoiy ong ko‘plab gumanitar fanlarning o‘rganish obyektlaridan biri bo‘lishiga qaramasdan, unga turlicha yondashuvlar mavjud. Bunda sotsiologik qarashlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda sodir bo‘ladigan har bir o‘zgarishning ijtimoiy tarkibiy qismlarini tahlil etish, uning ta‘sir chegaralarni aniqlash hamda yechimlari bo‘yicha aniq takliflarni ishlab chiqish asosida kechadi.

Ijtimoiy ong tushunchasining fanda ijtimoiy muammo atamasi bilan ham talqin etish holatlari uchraydi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy muammo haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish maqsadga muvofiq. Jamiyatdagi ijtimoiy ong va boshqa ijtimoiy muammolar har bir jamiyat va davlat munosabatlarida, ayniqsa tuzum va tizim o‘zgarishi kabi jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Hatto katta reytinga ilmiy markazlar ham shu asnodan shakllandi. 1936 yilda jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning o‘rganish, yangicha munosabatlarda insonlarning qarashlarini tartibga solish, tahlil qilish va yechimlarini aniqlash borasida “Ijtimoiy, psixologik muammolarning o‘rganish jamiyati(“The Society for Psychological Study of Social Issues”))” tashkil etildi. Jamiyatda ijtimoiy

ongning turli shakllari, xususan, axloq, urf-odat, an'ana, qadriyatlar (ijtimoiy, diniy) kabi ko'rinishlari mavjud bo'lib, u o'zgaruvchanlikka moyildir. Buning bir qancha sabablarini keltirib o'tish mumkin. Birinchidan, jamiyatda amalga oshirilgan islohotlar natijasida. Ikkinchidan davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasida amalga oshirilgan o'zgarishlar o'z navbatida ijtimoiy ongning takomilida alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy ong va uning shakllari kishilarning kundalik hayot tarziga ta'sir etadi. Demak, jamiyatdagi ijtimoiy muhitning rivojlanish trayektoriyasini aniqlashda hamma fanlar qatori sotsiologiya fani amaliylik nuqtai nazaridan o'rganish obyektlaridan asosiysi hisoblanadi. Keltirilgan fikrlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, muayyan davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy, ma'naviy, hatto siyosiy barqarorlikning o'ziga xos elementlari, avvalo, uning asosiy ijtimoiy ong hamda uning shakllari yordamida ta'minlanadi. Fikrimizcha, siyosiy institutlar – davlatning rivojlanishi uchun strategik, kompleks yondashuvlarni shakllantirishning asosiy manbasi sifatida ham talqin etishimiz mumkin. Yana bir ta'rifga ko'ra, «ijtimoiy ong jamiyatda fuqarolarning doimiy hamda hayotiy faoliyatlarini tartibga soluvchi hamda uning jamoaviy ko'rinishiga aylangan (davlat boshqaruvi misolida) umumiy, tartibli qoidalar, qonunchilik ko'rinishidagi tizimlarning o'ziga xos mexanizmi hisoblanadi»[11, – P.145].

Har bir xalq o'z davlatchiligini barpo etar ekan, bu ijtimoiy-siyosiy jarayon o'ziga xos tarzda bir qancha omillarga bog'liq holda rivojlangan, yangicha ko'rinishga ega bo'lib kelgan. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlar, fuqarolarning faolligi, ularning qarashlari darajasi(jamoatchilik fikri, ijtimoiy ong) bunda yetakchi o'rin egallaydi. Bu, jarayonlarning qanchalik evolyutsion holatga ega bo'lishi muhim. Bu o'z navbatida, jamiyatdagi ijtimoiy institutlar va ularning faoliyatining qanchalik samaradorligiga bevosita bog'liq tarzda amalga oshirilgan. Ijtimoiy ong darajasi, undagi o'zgarishlar hamda bu jarayonlarga moslashuvchanligi borasida ko'plab ilmiy-bahslar mavjud bo'lib, o'rganilgan manbalarning aksariyati ijtimoiy ongning transformatsion o'zgarishlari hamda ularning o'zgaruvchanligi, yo'nalishlari, motivlari ko'rsatkichlarini aniqlashni taqozo etadi. Bu jarayon o'z davlatchiligiga ega bo'lgan har bir jamiyatning taraqqiyoti borasidagi asosiy ilmiy-nazariy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu ilmiy muammoga bag'ishlangan sotsiologik tadqiqotlarning birida quyidagicha fikr yuritilgan: «Jamiyat va davlat munosabatlari shakllanishida demokratiya tamoyillarini joriy etishda ishtirok etayotgan ijtimoiy institutlar, qachonki aholi asosiy qismining manfaatlari va ijtimoiy maqsadlari (manfaatlari ham – muallif)ni ifoda etishga qodir bo'lmas ekan, ularni bu jamiyat davlat ijtimoiy munosabatlarini mustahkam hamda to'la ma'noda samarali deb hisoblash mumkin emas. Shuningdek, ularning jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarini yaqinlik darajasini olishi aholining ko'z o'ngida jamiyat oldidagi muammolarni qanchalik hal etish vositalariga egaligi, uning natijasi samarasiga bog'liqdir» [12, – C.400]. Ijtimoiy ong aslida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning muhim hamda asosiy rivojlanishini ko'rsatib beruvchi indikatorlardan biri hisoblanadi. Ularning o'zgaruvchanligi va moslashuvchanligi masalasi yangi jamiyat barpo etish yoki o'tish davriyligi jarayonida yana-da yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu jarayon transformatsiyalashuv deb atalib, ijtimoiy fanlarda u bilan tranzitologiya fani shug'ullanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, jamiyatdagi asosiy ijtimoiy institutlardan biri hisoblangan – ijtimoiy ong va uning shakllari tizimidagi o'zgarishlarni tadqiq etishning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir va ular quyidagilardan iboratdir: birinchidan, ijtimoiy ong u yoki bu shakllarinini mavjudligi jamiyatda, avvalo, davlat boshqaruvining barqarorlik omili hisoblanadi.

Bu jarayonning natijaviyligini anglash maqsadida ularning rivojlanishi tendensiyalarini, o'zgarish dinamikasini doimo tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi; ikkinchidan, ijtimoiy ongning rivojlanishiga xos jarayonlar davlat va jamiya munosabatlarini mustahkamlashda muhim ijtimoiy barqarorlik tendensiyasi sanaladi. Shuning uchun o'rganilgan ilmiy tadqiqotlarda bu holatni yaqqol kuzatish mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy ongni zamonaviylik munosabatlari bilan moslashuvchanligini o'rganishlarga kompleks tarzda yondashuvni talab etadi; uchinchidan, ijtimoiy ongning transformatsiyalashuvi, o'z navbatida, amaliyotda sinalgan boshqaruvga xos mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirgani bilan zamonaviy boshqaruv tamoyillarini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi; to'rtinchidan, ijtimoiy ongning transformatsiyalashuvining samaradorligini o'rganishi muayyan jamiyatda demokratiyaning moslashuvchanligini belgilashning asosiy

omillaridan biridir; beshinchidan, jamiyatda ijtimoiy ong munosabatlaridagi o'zgarishlar, o'z navbatida, jamiyatda boshqaruv va uning ta'sir mezonlarining yangi ijtimoiy munosabatlariga kirisha olishi, uning tayyorgarlik darajasi zamonaviylashuv bosqichidagi davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, yangi ijtimoiy munosabatlarini uzluksizligini ta'minlab berishga xizmat qiladi. Bu esa ijtimoiy tizim mustahkamligining asosiy omilidir.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Национальный психологический журнал №1(9)/2013. – С. 39–49.
2. Bernard J., Thompson L.F. Sociology. Nurses and their Patients in Modern Society. -Saint Louis: The C.V. Mosby Co., 1970. – P.125.
3. Потапейко Д.А. Правосознание как особое общественное явление. Киев,1970. – С. 12.
4. Избранные произведения: Пер. с нем./Сост., общ. ред. и послесл. Ю.Н.Давыдова; Предисл. П. П. Гайдено. – М.: Прогресс, 1990. – 808 с.
5. Энциклопедический социологический словарь // Под. общ. ред. Г.В.Осипова. – М.: 1995. – С. 227.
6. Мухаметов Р.С., Куньщиков С.В. Политические институты. Учебный электронный тестовый ресурс. – Екатеринбург, 2019. – С.6.
7. Kalman H. Expectant Peoples. New York, Random House, 1963. – P. 347.
8. Хантингтон С. Политический порядок в меняющихся обществах. – М.: Прогресс-Традиция, 2004. – С.29.
9. Ротстайн Б. Политические институты: общие проблемы // Политическая наука: Новые направления / под ред. Р.Гудина, Х-Д.Клингеманна; пер. с англ. яз. М.Гурвица, А.Демчук, Т.В.Якушевой. – М.: Вече, 1999. – С. 149-179.
10. Jouvenel deBertrand. Sovereignty. Chicago, Univercity of Press, 1963. – P. 123.
11. Риккерт Г. Границы естественнонаучного образования понятий. – Спб. «Наука», 1997. – С. 145.
12. Пантин В.И. Глобализация и проблемы развития демократических институтов в России и на Западе // Политические институты на рубеже тысячелетий. Дубна, 2001. – С.400.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 7, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000